

**Davlat dasturlari asosida amalga oshirilgan suv xo‘jaligida kapital
qurilish loyihalari ijrosi haqida
MA’LUMOT**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda “2024–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda Vazirlar Mahkamasi Rayosatining tegishli bayonnomalariga asosan 2024-yilda “Suvqurilishinvest” davlat muassasalari buyurtmachiligida 225 ta obyektida qurish va rekonstruksiya qilish ishlarini amalga oshirish uchun 1 607,3 mlrd. so‘m limit ajratilgan. Jumladan, 167 ta irrigatsiya obyektiga 1 351,0 mlrd.so‘m, 58 ta melioratsiya obyektiga uchun 256,0 mlrd. so‘m.

2024-yil yakuni bo‘yicha 225 ta irrigatsiya-melioratsiya loyihalari doirasida 1 607,5 mlrd. so‘m (yillik ajratilgan limitga nisbatan 100 foiz) mablag‘lar o‘zlashtirildi hamda 1 569,6 mlrd. so‘m mablag‘lar moliyalashtirildi.

Jumladan, irrigatsiya obyektlari bo‘yicha 1 343,7 mlrd. so‘m (99%), melioratsiya obyektlari bo‘yicha 263,8 mlrd. so‘m (103%) o‘zlashtirildi.

Ushbu mablag‘lar hisobiga irrigatsiya obyektlari bo‘yicha 595,1 km kanal, 83,0 km lotok tarmoqlari, 44 ta gidrotexnika inshooti, 33,6 m³/s suv chiqarish quvvatiga ega bo‘lgan nasos stansiyalari, 26,1 km bosimli quvurlar, 39 ta sug‘orish qudug‘i, 6,1 mln. m³ suv yig‘ish hajmiga ega bo‘lgan suv ombori hamda 14,1 km qirg‘oq himoya ishlari;

melioratsiya obyektlari bo‘yicha 225,9 km ochiq, 106,2 km yopiq kollektor-drenaj tarmoqlari, 82 ta vertikal drenaj qudug‘i, 31 ta gidrotexnika inshooti, 7 ta ko‘prik, 558 ta kuzatuv quduqlarini qurish va rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi.

**Suv xo‘jaligi loyihalarini
amalga oshirish departamenti**